

ИЧИМЛИК СУВИ ВА ЮҚУМЛИ КАСАЛЛИКЛАРНИ ТАРҚАЛИШ ХОЛАТИ

Шерқўзиева Г.Ф., Бахриддинова М.Н., Бойсариева М.Р.,

Эгамбердиева.З.З.

Тошкент тиббиёт академияси.

Тошкент, Ўзбекистон.

Аннотация: Мақолада ичимлик сувининг hozirgi dolzarb muammolari va unga bog'liq aholining yuqumli kasalliklar bilan kasallanish holati yillar dinamikasida keltirilgan. Hozirda xavoning isib boriши va Ўзбекистонда iklim sharoitlari solishtirma suv ta'minoti keskin muammo бўлиб қолмоқда. Ичимлик суви орқали қорин тифи ва паратиф, бацилляр дизентерия, вабо, ўткир гастроэнтерит, А ва Е гепатитлари, полиомиелит, амёба дизентерияси, гастроэнтеритлар келиб чиқиши мумкин.

Калит сўзлар: ичимлик суви, саломатлик, глобал, қорин тифи, паратиф, бацилляр дизентерия, вабо, ўткир гастроэнтерит,

ПИТЬЕВАЯ ВОДА И СОСТОЯНИЕ РАСПРОСТРАЕННОСТИ ИНФЕКЦИОННЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ

Шерқўзиева Г.Ф., Бахриддинова М.Н., Бойсариева

М.Р., Эгамбердиева.З.З.

Тошкентская медицинская академия.

Ташкент, Узбекистан

Аннотация: В статье представлены современные актуальные проблемы питьевой воды и состояние инфекционной заболеваемости населения связанной с водой в динамике. В данное время потепления воздуха, а также климатические условия Узбекистана являются одними из причин возникновения инфекционных заболеваний среди населения. Через питьевую воду могут передаваться такие заболевания как, брюшной

тиф, паратифы, бациллярная дизентерия, холера, острые гастроэнтериты, А и Е гепатиты и др.

Ключевые слова: питьевая вода, здоровье, глобальные проблемы, брюшной тиф, паратиф, бациллярная дизентерия, холера, острый гастроэнтерит,

DRINKING WATER AND THE STATE OF PREVALENCE OF INFECTIOUS DISEASES

Sherkozieva G.F., Bakhridinova M.N., Boysarieva M.R., Egamberdieva.Z.Z.

Tashkent Medical Academy.

Tashkent, Uzbekistan

Abstract: The article presents current current problems of drinking water and the state of infectious diseases of the population associated with water in dynamics. At this time, warming air, as well as the climatic conditions of Uzbekistan are one of the reasons for the emergence of infectious diseases among the population. Diseases such as typhoid fever, paratyphoid fever, bacillary dysentery, cholera, acute gastroenteritis, A and E hepatitis, etc. can be transmitted through drinking water.

Key words: drinking water, health, global problems, typhoid fever, paratyphoid fever, bacillary dysentery, cholera, acute gastroenteritis

Dolzarbliqi: Inson salomatligining 10-15 foizi ekologiya, 10-15 foizi genetika, 10-12 foizi tibbiyot tizimi darajasi, qolgan 55-60 foizi esa turmush tarziga bog'liq. 2025-yilga borib, dunyoning yarim aholisi suv tanqisligi mavjud bo'lgan joylarda yashaydi. Hozirda havoning isib borishi va O'zbekistonda aholi sonining ko'payishi sababli solishtirma suv ta'minoti keskin muammo bo'lib qolmoqda[2,6,7]. Orol dengizining suvi chorak asr mobaynida 15 martadan ziyodga kamayib, suv satxi 29 metrga pasaygan, hududda 5.5 million gektar tuzli qum maydoni hosil bo'lgan, oqibatda atrof 158 – muxit, odamlar hayoti va hayvonot olamiga mislsiz ziyon yetmoqda. Orol dengizi qurib borishi Markaziy

Osiyo mintaqasining ekologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Orol dengizi xavzasida yashovchi 60 milliondan ziyod aholi uning ta'siri ostida qolgan. Orol dengizi mintaqasining iqlimiy regulyatori bo'lib xizmat qilgan dengizning qurigan tubida 5,7 million gektardan ortiq maydonda esa Orolqum cho'li paydo bo'lgan. Orol inqirozi ichimlik suvi va sug'orish uchun ishlatiladigan daryo suvlarining keskin tanqisligi va o'ta ifloslanishi, aholining salomatligi yomonlashishi, chaqaloqlar o'limining ortishi va boshqalarga sabab bo'lmoqda. Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni taminlash bilan bog'liq muammolar to'g'risida so'z borganda mintaqaning umumiy suv zahiralardan oqilona foydalanish masalasini chetlab o'tib bo'lmaydi. So'nggi yillarda mamlakatimizda suvdan oqilona foydalanish, uning sifati va xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, suv iste'molini hisobga olishning zamonaviy innovatsion tizimlarini joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ko'rilgan holda suvdan foydalanish, shu jumladan suv ta'minoti va suv chiqarish sohasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda[1,3,5,]. Hozirda O'zbekistonda suv ta'minoti muammoli bo'lgan hududlarda istiqomat qiluvchi 850 mingdan ortiq aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishini yaxshilandi. Sifatsiz suv – kasalliklarni kelib chiqishida qashshoqlikdan keyingi ikkinchi o'rinda turuvchi xavf omili hisoblanadi[4]. Shuning uchun sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash aholining sanitar-epidemiologik osoyishtaligini yaratishda muhim vazifalardan biridir. Global darajada, eng kamida 1,8 milliard kishi fekal moddalar bilan ifloslangan ichimlik suv manbalaridan foydalanmoqda.

Tabiatdagi suvlar o'zining mikrobiologik ifloslanish darajasi bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Ko'pchilik suv manbaalari suvlarida mikroorganizmlar miqdori bir necha o'n milliongacha bo'ladi. Ichimlik suvi orqali qorin tifi va paratif, batsillyar dizenteriya, vabo, o'tkir gastroenterit va yuqumli ich 159 ketishlar, A va E gepatitlari, poliomyelit, amyoba dizenteriyasi, gastroenteritlar kelib chiqishi mumkin.

Tekshirish natijalari. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz aholi turar joylari aholisini xo'jalik ichimlik suvi bilan taminlanishidagi vodoprovod

suvining mikrobiologik ko'rsatkichlarini ekologo gigiyenik tekshirdik suvning sifatiga bog'liq aholi salomatligini retrospektiv taxlil qildik. Aholining ichimlik suviga bog'liq kasallanish holati retrospektiv taxlilda o'rganilganda biz asosan suv muhiti orqali kelib chiqadigan kasalliklar xususan yuqumli kasalliklarni o'rgandik va quyidagi natijalar olindi: salmoneloz kasalligi 2017-yil - 1 ta holat, 2018-yil - 2, 2019-yil - 1, 2020-yil esa tumanda qayd etilmadi, dizenteriya kasalligi bo'yicha esa 2017-yil - 1 ta holat, 2018-yil - 2, 2019-yil - 2 ta holat aniqlandi jadval-1.

1-Jadval

Aholining ichimlik suviga bog'liq kasallanish holati

Kasalliklar	2017	2018	2019	2020
Salmonelloz	1	2	1	-
Dizenteriya	1	2	2	-
O'tkir ichak kasalliklari	24	43	14	18

O'tkir ichak kasalliklari: 2017-yil - 24 ta holat, 2018-yil - 43, 2019-yil - 14, 2020-yil esa - 18 holat aniqlandi.

Xulosa. Olingan natijalar bo'yicha quyidagilarni xulosa qilish mumkin: tuman aholi o'rtasida o'tkir ichak kasalliklari hamma kuzatuv yillarida yuqori ko'rsatkichlarda aniqlandi. Salmonelloz va dizenteriya kasalliklar 2017 va 2017-yillarda tumanda aniqlanmadi. Aholiga berilayotgan xo'jalik ichimlik suvi Dav ST 950-2011 "Ichimlik suvi" talablari bo'yicha sulfatlar va xloridlar miqdori bo'yicha gigiyenik talablarga javob bermaydigan namunalari aniqlandi va bu aholining salomatligini saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Salomova F.I., Sherqo'ziyeva G.F., Iskandarov A.B., Urmanova L.J // Aholining dizenteriya kasalligi bilan kasallanishi va uning profilaktikasida suvning

sifatining ahamiyati. innovative teshnologies irreventive medisin / Rerublisan
ssientifis and rrastisal

2.Sherkuziyeva G.F.Salomova F.I., ToshmatovaG.A, XakimovaD.S//
Zagryazneniye vodoyemov bioudobreniyem «Yer malxami» «Globalnaya nauka i
innovatsiya 2023:Sentralnaya Aziya»№ 2(20). sentyabr 2023seriya
«Biologicheskiye nauki»jurnal osnovan v 2018 g. Astana – 2023

3.Sherkuziyeva G.F., Salomova F.I.// Vliyaniye bioudobreniya «Yer malxami» na
orgonolepticheskiye svoystva vodi vodoyemov. "Fundamental va amaliy
mikrobiologiyaning holati va rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-
amaliy anjumani.

4.Sherkuziyeva, G. F., Salomova, F. I., & Yuldasheva, F. U. (2023). Rezultati
sanitarno-ximicheskix issledovaniy vodi.

5.Sherkuziyeva, G. F., & Mustanov, J. A. (2016). Gigiyenicheskaya otsenka
kachestva pitevoy vodi. Molodoy ucheniy, (10), 552-555.

6.Sherkuziyeva, G. F. (2018). Rezultati sanitarno-virusologicheskix issledovaniy
vodi. In INTERNATIONAL SSIENTIFIS REVIEW OF THE RROBLEMS AND
RROSRESTS OF MODERN SSIENSE AND EDUSATION (rr. 114-116).

7.Sherkuziyeva, G. F. (2017). Ratsional ovqatlanishda ichimlik suvining ahamiyati
va roli. Molodoy ucheniy, (23-2), 9-10.